

ALISHER NAVOIY "XAMSA" DOSTONI ILMIY-TANQIDIY MATNNING MANBALARI HAQIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7826752>

Ne'matova O'g'iloy Akram qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: B.To'xliyev

O'zbek mutafakkiri Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati, avvalo, xalqqa va insoniyatga ma'rifat urug'larini sochish va shu orqali qalblarda adabiyotga, san'atga muhabbat uyg'otishning yuksak namunasini o'zida mujassam ettiradi. Mana shu jihatdan ham ulug' so'z bog'bonining merosini tadqiq etish va kelgusi avlodning o'rganishi uchun zamin yaratish barchamiz uchun ulug' ma'suliyat va oliy sharafdir. Alisher Navoiy qoldirgan adabiy va badiiy yodgorliklarni o'rganish borasida uzoq yillardan buyon juda katta izlanishlar olib borilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, bu borada Navoiyshunoslik maktabining yuzaga kelishi va alohida fan sifatida shakllanishi izlanish va tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Albatta, Navoiyshunoslik hozir yoki o'tgan asrda paydo bo'lib qolgan fan emasligini unutmashimiz kerak. Bu tarix XV asrning o'zidan, Navoiy zamondoshlari davridayoq boshlanganligi ilmiy isbotini topgan. Xususan, Xondamirning "Makorim ul-axloq" (Yaxshi xulqlar), "Habibus-siyar" (Suyuklixislatlar), "Xulosatul-axbor" (Voqealarning xulosasi), Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush-shuaro" (Shoirlar tazkirasi) asari, Boburning "Boburnoma"si, Vosifiyning "Bado'ye-ul baqoye" (Go'zal voqealar) kitobi va boshqalar¹⁹⁵ muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki, Navoiyshunoslik deya atalmish baquvvat chinor juda chuqur ildiz otgan va uning tomirlari o'tgan asrlarda yanada mustahkamlanib, sayqallanib bormoqda. O'zbek matnshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlar bu chinorning zabardast shoxiga aylanib ulgurgan. O'tgan asrning 40-yillarida boshlangan Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish sohasi asr oxirlariga kelib bir qancha mahsuldor natijalar bilan yakunlandi. Hozirgi kunda Alisher Navoiyning salmoqli asarlari ilmiy-tanqidiy matniga ega bo'lib, sohadagi yangi izlanuvchilarga eshik ochib bermoqda. Yuqoridagi bobda ta'kidlanganidek, O'zbekistonda mumtoz adabiyot durdonalarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda yo'l boshchilik qilgan,

¹⁹⁵ Маллаев Н. Асрлар эътирофи ва таъзими. Т-Фан, 1978. 5-бет

matnshunoslikka asos solgan Porso Shamsiyevning xizmatlari e'tirofqa sazovor. Shu bilan bir qatorda 50-60-yillarda H.Sulaymon, S.G'aniyeva, Sh. Eshonxo'jayev, L. Xalilov va boshqa olimlar Porso Shamsiyev yo'lini munosib davom ettirdilar. S. G'aniyeva "Majolis un-nafois" ning ilmiy-tanqidiy tekstini e'lon qilgan bo'lsa, H. Sulaymon "Xazoyin ul-maoniy" devonlarining ilmiy-tanqidiy tekstini ishlab chiqib, shu tekst asosida hozirgi yozuv grafikasida Navoiy devonlarini ommalashtirdi¹⁹⁶. Bu kabi matnshunoslikka oid qimmatli tadqiqotlarning barchasi Navoiy merosini aniq manba va matn asosida o'rganishni taqozo etadi. Negaki, aniq va ishonchli manba asosida o'rganilgan matn nashri mukammal va yuqori saviyada tayyorlanadi. Biz bilamizki, Navoiy 42 yoshida "Xamsa"ning birinchi dostoni – "Hayrat ul-abror"ni yozishga kirishdi va shu yildayoq uni tugalladi. Albatta, Navoiy "Xamsa" sining yaratilishi o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi eng katta voqealardan biri bo'ldi. Navoiyga qadar hech kim o'zbek tilida bundayin buyuk asar yozishga jur'at olmagan edi¹⁹⁷. Mana shu jihatdan ham Alisher Navoiyning ulkan adabiy, ilmiy, tarixiy merosi XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek kitobat tarixi, xattotlik va badiiy qo'lyozma tarixida keskin burilish yasadi. Agar XV asrga qadar o'zbek tilidagi adabiy, tarixiy manbalar kotiblar tomonidan juda oz ko'chirilgan bo'lsa, XV asr o'rtalaridan boshlab faqat ayrim kotiblargina emas, balki butun-butun xattotlik maktablarining namoyondalari Navoiy asarlarini ko'chirish bilan mashg'ul bo'ldilar va XV asrdan boshlab to XX asr boshlariga qadar o'zbek tilida kitobat qilingan manbalarning qariyb yarmini Navoiy asarlarining nusxalari tashkil qiladi¹⁹⁸. Demak, Navoiy ijodi o'zbek adabiyotining eng eng oliy mahsulidir. Shunisi diqqatga sazovorki, Navoiy asarlarining ko'pchiligi, jumladan "Xamsa" si ham o'zi hayot bo'lgan davrda o'sha asrning mashhur xattotlaridan bo'lmish Sulton Ali Mashhadiy, Abduljamil kotib va boshqalar tomonidan ko'chirilib, shoirning ko'zi tushgan va tabbarruk qo'li tekkan mo'tabar qo'lyozmalar tarzida bizgacha yetib keldi¹⁹⁹.

Ulug' shoir asarlarining tadqiq etish usullari, eng avvalo matnshunoslikning tadrijiy taraqqiyotini hisobga olib ikki yo'nalishda xizmat qilish nazarda tutildi: 1) Navoiy asarlarini mukammal ilmiy-tanqidiy matnini tuzish va shu asosida to'liq sharhlar bilan ta'minlangan shoir asarlari ustida keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borish; 2) Navoiy asarlarining joriy yozuvga tabdilini amalga oshirish orqali

¹⁹⁶ Маллаев Н. Асрлар эътирофи ва таъзими. Т-Фан, 1978. 43-бет

¹⁹⁷ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Т: Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 5-бет.

¹⁹⁸ Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. - Т: Фан нашриёти, 3-бет.

¹⁹⁹ 21. 17-бет.

keng kitobxonlar ehtiyojini qondirish²⁰⁰. Mana shu jihatlarga e'tiborli bo'lgan Porso Shamsiyev matnlar aro butunlikni saqlab qolishni jiddiy vazifa sifatida ko'rdi. Shuning uchun ham olim Alisher Navoiy qoldirgan obida "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish va bu matnlarning akademik nashrlarini maydonga chiqarishni to'liq holda amalga oshirdi. Bu fikrlarni dalillash uchun Porso Shamsiyevning quyidagi fikrlarini keltirdik: Ulug' shoirning "Xamsa" si hech qanday parokandalikka, interpolyatsiyalarga, Navoiyning o'z ta'biri bilan aytganda, "tag'yir va tabdil" ga "taxalluf va tasarruf" ga uchramay, mo'tabar kotiblar qalami bilan bitilgan eng yaxshi qo'lyozmalarda o'zining to'laligicha bizgacha yetib kelgandirki, bu yoqimli holat shoirning boshqa asarlarida bu darajada emasdir²⁰¹. Darhaqiqat, "Xamsa" qo'lyozmalaridagi qadimiylik va ko'p nusxalilik bu asarni yanada to'la o'rganishga zamin yaratdi. Bu esa ijobiy holat bo'lib, asarning tanqidiy matnini tuzishda mo'tabar nusxalarni izlab topishga ko'mak berdi. Zotan, matnshunos olimlarning ta'kidlashiga ko'ra, tanqidiy tekst tuzishda har bir asarning o'z xususiyatidan kelib chiqish va har bir asarga yakkama yakkam qarab ish ko'rish kerak²⁰².

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Porso Shamsiyev "Hayrat ul-abror" dostonining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda qaysi qo'lyozma manbalardan foydalangan va ularni tatqiq etishda qanday usullarga amal qilgan? Qo'lyozma nusxalarning ko'pligidan shunday xulosa qilish mumkinki, navbat "Hayrat ul-abror"ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratishga kelganda, olim ancha tajribaga ega bo'lgan va "Sabba'i sayyor", "Farhod va Shirin" dan farqli o'laroq yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qilgan. Vazifaning og'irligi shunda ediki, dunyoning har xil burchaklariga tarqalib ketgan bu qo'lyozmalarning ichidan qaysi bir nusxa nashr qilishga haqliroq, qaysi biri to'liq va noqis? Bu savollarga javob topish nazariy jihatdan oson bo'lsa-da, ularning amaliy tatbiqi har qaysi olimni o'ylantirmasdan qolmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, o'zbek matnshunosligining yuzaga kelishi esa bevosita Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish bilan chambarchas bog'liq. Yuqorida ta'kidlanganidek, ilmiy-tanqidiy matn yaratish bu shunchaki qo'lyozmaning yangi variantini yaratish emas, balki ilmiy dalillar asosida muallif matniga yaqin variantni aslyat yozuvida taqdim etishdir. Ilmiy-tanqidiy matn yaratish prinsplari birmuncha murakkab bo'lib,

²⁰⁰ Абдулхайров М. Навоий асарлари матни табдилини амалга ошириш усуллариб тамойиллари ва амалий масалалари. Фил.фан.док. –Т: ГДУТАУ 2020. 15-бет.

²⁰¹ Алишер Навоий. Фарход ва Ширин.Илмий критик текст. (Муқаддима қисми) Т: 1963. 7-бет.

²⁰² Алишер Навоий. Фарход ва Ширин.Илмий критик текст. (Муқаддима қисми) Т: 1963. 7-бет.

izlanuvchidan kuchli bilim va ko‘nikma talab etadi. Chunki ilmiy-tanqidiy matnda bir qancha qo‘lyozma nusxalar solishtirilib, satr osti ilmiy aparatga har bir so‘zning farqi, xatosi, tushib qolgani yoki qo‘shimcha yozilgani, xullas, nuqtadan to jumlagacha yozib boriladi. Ilmiy matnning o‘ziga xos kamchiligi ham bo‘lib bu – izlanuvchi bir necha matn chog‘ishtirish jarayonida, bilar-bilmas asarning yangi variantini yaratib qo‘yishidir. Aksariyat hollarda bunday matnlar nisbiy hisoblanadi va asliyat matn bo‘la olmaydi. Chunki olim tadqiqot chog‘ida biror kamchilikka yo‘l qo‘ygan bo‘lishi mumkin va bu holat asar matniga ta‘sir qilmay qolmaydi.